

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

1.2021

**научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2021

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

TAHRIR HAY’ATI:	
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom , fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom , biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos , iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek , tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O’tkir , tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana , pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima , falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek , tarix fanlari doktori, DO’SCHONOV Tangribergan , iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila , filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda , falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar , fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdiyor , fizika-matematika fanlari doktori, JO’RAYEV Mamatqul , filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud , texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otoboy , filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek , filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy , fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash , yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla , falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat , filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun , fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO’ZIMBOYEV Safarboy , filologiya fanlari doktori, professor, RO’ZIYEV Erkinboy , pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy , fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna , filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy , tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek , iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna , pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar , qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor , pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rnibosari), YOQUBOV Jamoliddin , filologiya fanlari doktori, professor, O’ROZBOYEV Abdulla , filologiya fanlari doktori, O’ROZBOYEV G‘ayrat , fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod , filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
2021 1(163)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

Jangohlarda o‘lmasdan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xurshid Davron she’rlarining barchasi ijtimoiy munosabatlar tahviliga keng e’tibor qaratilgan. Chunki shoir xalqi ozodligi yo‘lida, o‘zbek xalqi hech kimdan kam emasligini isbotlash yo‘lida bor kuch va mahoratini ishga soldi. Xalqining g‘urur va iftixorini yuksalti-rishga, ong-shuurini, erk va ozodlik tuyg‘ulari bilan boyitishga iste‘dodini bag‘ishladi. Shoir esselaridan birida “Dilida o‘qish zavqi so‘nmagan, o‘z tarixi bilan qiziqqan, ajoddlari hayoti bitilgan kitoblarni sevib o‘qigan xalq buyukdir”, deb yozadi. Haqiqatdan ham, shoir orzu qilgan buyuklik – kitobxonlikning keng ko‘lamda har bir oilaga yetib borishi yoshlarimiz dunyoqarashida, tafakkurida keskin burilish yasamoqda. Bugungi uchinchi Uyg‘onish davrini boshidan kechirayotgan o‘zbekistonlik har bir vatanparvar insonlar qalbi parvarishida Xurshid Darvon aql zakosi ham porlab turibdi.

Nizomova Shoxista Shodiyevna (Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi)
ZAMONAVIY SHE’RIYATDA SUV VA OLOV BILAN BOG‘LIQ OBRAZLARNI
IFODALASH AN’ANASI

Annotatsiya. *O‘zbek she’riyati bir-biridan ajoyib ramzlarga, o‘xshatishlarga boy. Ayniqsa, suv va olov tasviri she’riyatimizda o‘ziga xos obrazlilikni yaratgan. Ushbu maqolada zamonaviy she’riyatda suv va olov bilan bog‘liq obrazlarning ifodalaniishi haqida fikr yuritilgan. Misollar, asosan, zamonaviy she’riyatdan olingan.*

Аннотация. Узбекская поэзия богата чудесными символами и аналогиями. В частности, образ воды и огня создал уникальные образы в нашей поэзии. В статье рассматривается представление изображений, связанных с водой и огнем, в современной поэзии. Приведены примеры в основном из современной поэзии.

Annotation. *Uzbek poetry is rich in wonderful symbols and analogies. In particular, the image of water and fire has created a unique imagery in our poetry. This article discusses the representation of images associated with water and fire in modern poetry. The examples are mostly taken from modern poetry.*

Kalit so‘zlar: zamonaviy she’riyat, obraz, badiiy obraz, an’ana, qadriyat.

Ключевые слова: современная поэзия, образ, художественный образ, традиция, значение.

Key words: modern poetry, image, artistic image, customs, value.

Ma’lumki, hayotda, jamiyatning turli jahbalarida ro‘y bergen o‘zgarish va evrilishlar adabiyot va san’atda ham o‘z ifodasini topadi. Bu narsa eng hozirjavob so‘z san’ati sohasi sanalmish she’riyatda yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham she’riyat nisbatan tez yangilanadigan, shaklan va mazmunan zamon bilan hamohang qadam tashlaydigan soha sanaladi. Shu sabab ham bugungi she’riyat kechagi she’riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she’riyat ko‘proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida hayot ziddiyatlarini ko‘rsatgan bo‘lsa, bugung ishe’riyat ko‘proq o‘z nigohini insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg‘ularini olib berish asnosida, insonni o‘zi bilan tanishtirdi. Bunda u o‘ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko‘chimlardan foydalandi, ularga alohida e’tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining tabiatini teran va to‘laroq ochish, shuningdek, ta’sirliroq ifodalash bilan belgilandi. Chunki bunga bugunda har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezilmoqda.¹

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida suvga e’tiqodning hayotiy asoslari shundaki, inson – tabiatning bir bo‘lagi. U suvsiz yashay olmaydi. Suv inson tirikligining garovi hisoblanadi. Suv tabiatdagisi to‘rt muhim unsurning biri. Buni buxorolik shoir Sadriddin Salim Buxoriy she’rda shunday ta’riflab ko‘rsatadi:

To‘rt unsurdan biri suv erur, O‘zgasidir xoku el, otash. Ildiz suvga yetgani zahot Bo‘lgay hayot unsuri tutash.

Darhaqiqat, suv – hayotiy quvvat manbai. Suvsiz tiriklikni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Barcha mavjudotning hayoti suv bilan bog‘liqidir. Suv – non kabi inson uchun aziz. Suvsizlikdan, tashnalikdan inson organizmi o‘lim topishi aniq.

Bir burda non bilan to‘yadi odam, qultum suv qondirar chanqog‘ni.

Suv – tiriklik manbai. Usiz nafaqat inson, boshqa tirik jonzotlar ham yashay olmaydi. Insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi tirikligi uchun, albatta, suv zarur. Ana shu sabab uni “obi hayot” deya ta’riflaydilar:

¹ Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob, Toshkent, «Yozuvchi», 1999.

Bu zamin obi hayot birla to‘lug‘ paymonadir, Maskanim Farg‘onadir, Farg‘onadir, Farg‘onadir.

Suv chanqoqni bosadi. Tashna qalblarga orom va huzur, kuch-qudrat bag‘ishlaydi. Xususan, issiqliqdan bo‘g‘riqqan, ichi kuyib borayotgan inson muzday suv ichsa, tanasi rohatlanadi:

Men keldim alamning dashtidan kuyrab, Beg‘ubor so‘zlar de – bir muzday suv tut. Yoki:

Hovuch-hovuch ichadi qizcha, Serob bo‘lib ketar tashna lab. She‘rim o‘qib bir hovuch suvcha Bahra olarmikan biron qalb?

Ko‘rinadiki, shoirlar suv tashna qalbni nechog‘lik qondira olgani kabi o‘z she‘rlari ham suvdek insonlarning ezgulikka tashna yuraklariga, ko‘ngillariga sizib kirib borishini va unda ma’naviyat chechaklarini undirishini xohlaydilar. Ana shu sabab Ikrom Otamurod ham inson ko‘nglini suvga tashna joyga o‘xshatib yozadi:

Kanglum – sog‘inchlarning siniqqan rangi, kanglum – sog‘inchlar-a suv tutgan tashna.

Qadimgi ajodolarimiz suvni Ollohnning ko‘zgusi deb bilishgan. Bunga ishora zamonaviy shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Jumladan, Erkin Vohidovning “Majnuntol” she‘rida shunday misralar uchraydi:

– Yo‘q, fikrim band etgan oqqushlar emas, Sabo yo parivash boqishlar emas,

Na suv ko‘zgusida ko‘ringan hilol, Na chehrasi ol!

Yana shoir “Qubbon ko‘liga” she‘rida shunday yozadi: Sado deydi: Sochlarin yoyib,

Nechun quyosh kezar parishon? Tong chiqar-u kech bo‘lar g‘oyib.

Ne izlab u kezadi jahon?

Aks sado der: Bunda bir zamon.

Yo‘qotmish u oyinasini... Quyosh hamon izlaydi seni.

Qadimda suvdan oyna o‘rnida foydalanaligan. Shu tarixiy dalilga ishora shoir she‘rlaridan birida quydagicha talqin etilgan:

So‘ng aftini ko‘rib suvda Loyqalating, dedi shoh, Ariqdagi tiniq suvni, Tiniq suvdadir gunoh.

Alqissa, so‘ng evin topib Shohni qo‘ydilar go‘rga, Oyina yo‘q, tiniq suv yo‘q, Shoir yo‘q, ya‘ni go‘rga.

Sabr dovonin o‘tdim, Go‘yo bo‘ldi dil.

Ko‘z yoshlariyimni yutdim, Daryo bo‘ldi dil.

Suv – olovga zid unsur. U orqali olov o‘chadi. Bu haqiqat quyidagi misralar qatida aks ettirilgan:

Bu yerlarga behuda keldim, Suvga cho‘kkan cho‘g‘dek so‘zlarim.

Suv ustida og‘ir narsalar cho‘kib ketadi. Xususan, suv toshni ko‘tara olmaydi.

Tosh suvga tushishi bilan cho‘kib, ko‘zdan yo‘qoladi:

Suvga tushgan tosh kabi beg‘am, Beparvoman, koshki, desam dod. Qismatimiz shu ekan, jo‘ram, Qoq ikkiga bo‘lingan hayot.

Bu kabi hayotiy asoslar qadimdan ajodolarimizning suvni o‘ziga yaqin ko‘makdosh, homiy deb anglashiga, uni ulug‘lashiga olib kelgan. Natijada suv kulti bilan aloqador ko‘pgina an‘analar vujudga kelgan. Insoniyatning juda ko‘p an‘analar, marosim va bayramlari, hayotiy tushunchalari bevosita suv bilan bog‘liqidir.

Ayol – olov, ayol – gul Sochlari arsloni yollar. Ishqda yonmay bo‘lsa qul Hayf-ey, olov ayollar.¹

Avvalo she‘rdagi xalqona ohang milliy jozibadorlikni yuzaga keltirgan. Bu yerda ishq polifonik tushuncha. Ya‘ni, hayotiy va majoziy ishq uyg‘unligini tashkil etish bilan birga, yurtiga, xalqiga bo‘lgan ishqni ham qamrab oladi.

Kecha nodonchalar qilishib huzur, Haykalin tiklashib, haykalin buzib, Bugun biri kelsa, so‘rashib uzr, Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.

Ana farishtangiz turdi ham go‘rdan, Joyi to‘rda edi – berishdi to‘rdan, Sizda ham bor ekan, manglayda sho‘rdan, Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.

Shoirning «Said Ahmad», «Mo‘minjon», «Ma‘ruf Jalil» nomli she‘rlari ham shular jumlasidandir ko‘rib turganimizdek, Muhammad Yusufning she‘rlari sodda yozilgan. Unda jimjimador so‘zlar, tasvir vositalari yo‘q darajada. Lekin yurakka yaqin, kishi tuyg‘ularini qo‘zg‘aydigan xalqona ohang mavjud. Soddalikda ulug‘lik mujassam deb bekorga ta‘kidlanmagan ekan.

Keyingi davrda adabiy yo‘nalishga xos xususiyatlar, ko‘proq ikkilik, uchlik, to‘rtlik, beshlik, oltilik, yettilik, sakkizlik singari poetik shakllarda ruboiy, sonet kabi lirika janrlari-yu sarbastdagilizlanishlarida ko‘zga tashlanadi. Bu borada xalq shoiri Muhammad Toirning «Ikkiliklar»i, Miraziz A‘zam, Abduvali Qutbiddin, Faxriyorning sarbastdagilizlanishlarida badiiy puxta asarlari, G‘ulom Mirzo, G‘uzal Begimning uchliklari,

¹ Hudoyberganov E. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 2004.

Gulchehra Jo‘rayevaning «Istiqlol va Iqbol egizak ekan», Tursun Alining «Ko‘ngli uzra xazonrez fasli», Oygul Suyundiqovaning «Ko‘ngil tonglari», Munavvaraning «Yurt ishqini tuttim yurakka», Oydinniso ning «Sen» turkumlari, Bahrom Ro‘zimuhammad, Rauf Subhon, Mirzo Kenjabek, Vafo Fayzullo kabi shoirlarning inson zohiriy hamda botiniy hayotini badiiy o‘rganish orasidagi izlanishlari diqqatga loyi qdir.

Xulosa qilib aytganda, ana shu o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra, shoirlarimizning lirik qahramonlari bir-biridan farqlanadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Oydin Hojiyeva, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Ikrom Otamurod, Halima Ahmedova, Salim Ashur, Sirojiddin Rauf, Muhammad Yusuf singari ijodkorlarimiz tafakkur qirralari: madaniy, ma’rifiy, tarixiy, diniy-axloqiy qadriyatlarga, ko‘ngil tuyg‘ulariga munosabatiga ko‘ra o‘zaro ajralib turadi. Millatparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari ularning har bittasida o‘ziga xos namoyon bo‘layotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek she’riyati, xususan, lirikasi mustaqillik yillarida xalqni, ayniqsa, yoshlarimizni milliy qadriyatlarga sadoqat, istiqlol ruhida tarbiyalashda o‘z vazifasini sidqidildan bajarmoqda, milliylikning shakllanishi va taraqqiyotini ta’minalashda zamonaviy o‘zbek she’riyatida suv va olov obrazlarining ifodalani shi asosiy omillardan biri sifatida tobora faollashmoqda.

**Эгамбердиева Азиза Мустафаевна (Навоий Давлат Педагогика институти ўқитувчisi)
ТАЪЛИМДА ЁШЛАР ТАШАББУСКОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК
ПОЗИЦИЯСИННИГ ЎРНИ**

Аннотация. Мақолада таълим тизимида Ўзбекистон ва хорижда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг фалсафий жиҳатлари илмий тадқиқот объекти сифатида ўрганилган. Унда ёшларнинг таълимдаги ташаббускорлиги ва фаол фуқаролик позициясини ривожлантиришига доир қарашлар тадқиқ этилган. Жамиятда ташаббускор ёшларни купайтиришига хизмат қиласидиган таълимни шакллантиришида хорижий давлатларнинг тажрибаси илмий тарзда ўрганилган.

Аннотация. В статье рассматриваются философские аспекты проводимых реформ как объект научного исследования в системе образования Узбекистана и за рубежом. В ней рассматриваются взгляды молодежи на инициативы в образовании и развитии активной гражданской позиции. Научно изучен опыт зарубежных стран в формировании образования, способствующего увеличению числа инициативной молодёжи в обществе.

Annotation. The article examines the philosophical aspects of the ongoing reforms as an object of scientific research in the educational system of Uzbekistan and abroad. It examines the views of young people on educational initiatives and the development of an active civic position. The experience of foreign countries in the formation of education that contributes to an increase in the number of initiative youth in society has been scientifically studied.

Калим сўзлар: ташаббускорлик, фаол фуқаролик позицияси, таълим тизими, ёшлар, хорижий таълим, қадриятлар, тажриба, демократик ислоҳотлар, жамият.

Ключевые слова: инициатива, активная гармоническая позиция, система образования, молодежь, зарубежное образование, ценности, опыт, демократические реформы, общество.

Key words: initiative, active civic position, education system, youth, foreign education, values, experience, democratic reforms, society.

Хар бир мамлакат ўзининг эртанги тараққиёт йўлини ёшлар фаолияти билан узвий равища олиб боради. Бу йўлда, биринчи навбатда, мавжуд таълим тизимини ривожлантириш, ўсиб келаётган ёш авлодни келажак ворислари қилиб тарбиялаш асосий масала хисобланади. Юртимизда таълимнинг барча буғинларида ижтимоий-сиёсий трансформация, демократлаштириш, ахборотлаштириш ва глобаллашув жараёнлари вужудга келди. Натижада ёшлар ташаббускорлигини жамиятда кучайтириш, таълим жараёнида фаол фуқарони тарбиялаб вояга етказиш асосий мақсадга айланди. Таълимда профессионал мутахассисларнинг фаолият олиб борувчи субъект сифатида ўзўзини тўлиқ намоён этишга кенг шарт-шароит яратилди. Бундай ўзгаришлар эса, ўз навбатида, ёшларда фаол фуқаролик позициясига эга бўлган ташаббускорлик туйғуларини шакллантироқда.

Узбекистонда ҳам фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражаси ёшларнинг таълим тизимидаги ташаббускорлиги билан боғлиқ. Бу борада давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев сўз юритар экан, “Биз кўплаб дастурларни қабул қиласидамиз, лекин уларни амалга оширадиган, ташаббускор ва ватанпарвар, юқори малакали кадрлар етарлимиз? Олий ўқув юргларида тайёрланаётган мута-

Ergasheva Muborak Qozoqboyevna. “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda Corel Draw dasturining afzalliklari.....	95
Садирова Камола Ғиёзовна. Эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг ақлий ривожланиш йўллари.....	97
Abdullayeva Maftuna Muxitdinovna. Surdopedagogika ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarda empatiya kasbiy sifatini rivojlantirishda o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotining ahamiyati.....	100
Турабова Севара Каттақуловна. Талабаларнинг аргументатив компетентлигини ривожлантириша баҳс-мунозара методининг аҳамияти.....	102
Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна. Программно-методический комплекс в качестве эффективного средства использования информационных технологий в преподавании предмета теория алгоритмов.....	105
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Ashirova Anorgul Ismoilovna, Baltayea Iroda Ismoilovna, Xajiboyeva Surayyo Maxmudjonovna. Articulate storyline dasturida elektron resurs yaratish metodikasi.....	112

ILMIY AXBOROT

Расулов Сайдулла Қурбонович, Тўрамкулов Шокир Нормуминович. Зарафшон воҳасининг биогеокимёвий худудларида яшовчи кичик мактаб ёшидаги болалар соч таркибидаги макро- ва микроэлементларнинг соматометрик кўрсаткичлар билан ўзаро боғлиқлиги.....	117
Мамадалиев Жавлонбек Абдумуталиб ўғли. Андижон вилояти сугориладиган ерлар сифатини баҳолаш.....	122
Джумақулов Шуҳрат Баҳодирович. Маҳалла маънавий тарғибот обьекти сифатида.....	124
Ражабов Ўтқирjon Хурсаналиевич. Ижтимоий мухитнинг шахс тараккиётидаги ўрни ва роли.....	127
Исомиддинов Азизбек Абдумажидович. Ҳаракатлар стратегияси ва ёшлар интеллектуал салоҳиятнинг ижтимоий-маданий омили.....	130
Алламуратов Нурибай Есемуратович. Қорақалпоқ тилида компонентли юридик терминларни боғловчи воситалар.....	133
Choriyev Shokir Mamadaminovich. Chipqon atamasining fonetik, etimologik-semantik xususiyati.....	137
Аширбаева Дилором Равшановна. Корейс тилидаги ака (형/오빠) ва опа (누나/언니) мурожаатларининг этимологияси ва кўлланилишига доир.....	139
Cho‘lliyeva Gulchehra Toshpo‘lot qizi. Intonema haqida.....	143
Ибрагимов Хайрулла Ҳамдамович. Тўра Сулаймон ижодида теоморфик метафора.....	146
Каримов Рустам Абдурасулович. Параллел корпуснинг лингвистик, хорижий тил лингводидактикасидаги аҳамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари.....	150
Махмудова Муаттар Ҳасматиллоевна. Й.В.Гёте “Фарбу Шарқ” девонининг Мақсад Шайхзода ва С.С.Бухорий таржималарига хос хусусиятлар.....	153
Atabekova Feruza Nujamkulovna. Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi.....	157
Эрданов Зафар Даминович. Зулфиянинг поэтик маҳорати ва ўзбек таржимашунослиги муаммолари.....	160
Курбанова Мунаввар. Шекспир услубидаги тизимли ва структуравий яхлитлик.....	164
Атажанов Сарвар Самандарович. Эркин Самандарнинг асар бадииятида турғун ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати.....	167
Низамова Феруза Алимуллаевна. Алишер Навоийнинг форсий ижодидан бир қатра.....	171
Умрзаков Ислом Исройлович. Уильям Фолкнер асарларида “вақт” категорияси.....	173
Nusratilloyeva Dilnoza Nusratilloyevna. Xurshid Davron lirikasida tarixiy shaxslar obrazi.....	177
Nizomova Shoxista Shodiyevna. Zamoniaviy she’riyatda suv va olov bilan bog‘liq obrazlarni ifodalash an’anasi.....	182
Эгамбердиева Азиза Мустафаевна. Таълимда ёшлар ташаббускорлигини оширишда фаол фуқаролик позициясининг ўрни.....	184
Мамаюсупова Диловархон Бегматовна. Давлат-хусусий шериклигининг мазмуни ва ўзига хос хусусиятлари.....	188
Sheralieva Shirin Abdisalomovna. The Problem of Interaction of Language and Religion.....	194
Khodjaniyazov Sardor Umarovich, Jumaniyazova Nasiba Odilbekovna. Teaching Tourism Police with Cultural Intelligence.....	196